

**ILK O'RTA ASRLARDA O'LKAMIZ TARIXIY GEOGRAFIYASI****G'aybullayeva Shaxribonu**

BuxDU Etnografiya, etnologiya va antropologiya 2-bosqich magistranti

**Qudratov Shuhrat**

BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası t.f.f.d(PhD)

**Annatsiya.** Sivilizatsiya markazi sifatida dunyo tomonidan tan olingan O'rta Osiyo hududi o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichida ko'plab davlatlar uchun makon vazifasini o'tab bergan. Ilk o'rta asrlar siyosiy -tarixiy geografiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu vaqtda bir nechta qabilalar hujumi va ularning davlat tuzganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqolada ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan davlatlar xioniylar, kidariylar, eftallar, Turk xoqonligi va mustaqil mahalliy hokimliklar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ilk o'rta asr davlatlari, xioniylar, kidarlar, eftalliylar, Turk xoqonligi, mahalliy hokimliklar.

**Kirish.** O'rta Osiyo tarixini o'rganishda ilk o'rta asrlar tarixiy geografiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Qaysidir davlat to'g'risida so'z yuritilar ekan, dastlab bu davlatning qachon tashkil topganligiga va uning hududi qayerlarni tashkil etganligiga to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Bu esa bevosita tarixiy geografik hududlarni o'rganish bilan bo'liqdir.

Ilk o'rta asrlarda Turkiston zaminida bir nechta davlatlarning qaror topganligini tarixdan bizga ma'lum . Bu davlatlarning hududlari chegaralari o'zgarib turgan . Masalan ilk o'rta asrlarning dastlabki davlatlari Xioniylar Kidariylar, Eftallar , Turk xoqonligi kabi davlatlarni aytish mumkin .

Qang' parchalangandan so'ng vujudga kelgan davlatlardan biri Xioniylar davlatidir. IV asr o'rtalarida O'rta Osiyo yerlariga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan Grumbat boshchiligidagi xiyon qabilalarining hujumi boshlanadi. Bu qabilalarning vatani ayrim tarixchilar fikricha, Orol bo'yida deb hisoblaydilar. Xioniylarni g'arb tarixchilari 'oq xunlar' deb ataydilar, bunga xunlarga qarindosh bo'lganligi sabab bo'lsa kerak<sup>1</sup>. 353-yilda ular so'g'dga bostirib kiradilar. Xiyoniylar sosoniylar bilan to'qnash kelib, ularni yengadilar. Ba'zi tadqiqotchilar fikriga qaraganda, xioniylar dastlab Oltoy tog'lari atrofida yashagan va IV asrning 1-yarmida janubi-g'arbg'a tomon siljib, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hududlarga kirib kelishgan. Bu hududda ular dastlab ular Zarafshon vohasini egallab, janubga harakat qilishgan va ancha zaiflashib qolgan Kushon podsholigi o'rnini egallaydilar. Ular markazi Toxariston bo'lgan Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Xurosonning bir qismini ham o'z ichiga olgan Xioniylar davlatini tuzad<sup>2</sup>i. Shu tariqa, IV asrning 70-yillarida O'rta Osiyoda 120 yildan oshiqroq hukmronlik qilgan kuchli xioniylar hukmronligi o'rnatildi. Bu davlatning chegarasi Sirdaryo bo'ylaridan to Amudaryo bo'ylariga qadar cho'zilgan katta hududni egallagan edi.<sup>3</sup> Xioniylar davlatining ham davlatchiligimiz tarixida o'rni katta. Bu davlat Turkiston tarixiy geografiyasida o'z iziga ega hisoblanadi.

Kidariylar davlati. Tadqiqotchilarning fikricha, kidariylarning dastlabki vatani Sharqiy Turkiston edi. Beyshi solnomasida keltirilishicha, yuechjilar hukumdori Sidolo jujanlar hujumi tufayli o'z qarorgohini Bolo ya'ni Balxga ko'chirgan. Ayrim tadqiqotchilar kidariylar Sharqiy Turkistondan ko'chishi paytida ikkiga bo'lingan: birinchi katta qismi shimoli-g'arbiy Hindistonga, ikkinchi kichik qismi esa O'rta Osiyoga joylashgan degan fikrni ilgari suradilar. Kidariylar masalasi bilan shug'ullangan S.K. Kabanovning fikriga ko'ra, kidariylar davlatining markazi Balx emas balki Qarshi atrofidagi Yerqo'rg'on shahri bo'lgan. Uning bu fikriga

<sup>1</sup> Ешов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви. Тошкент-2012., Б-133.

<sup>2</sup> uz.m.wikipedia.org

<sup>3</sup> Sultonov F., Bozorboyev F. O'rta asrlar tarixi. Toshkent., Alisher Nasvoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2007. B- 4.,

L.N.Gumilyov ham qo'shilgan. Biroq ko'pchilik tarixchilar tomonidan bu fikr qo'llab quvvatlanmagan<sup>4</sup>. Boshqa bir manbada esa ular xususida quyidagi fikrlarni uchratish mumkin. V asrning 20-yillarida Sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga yana bir ko'chmanchi chorvador aholi – toxarlar kirib keladi. Toxarlar kushonlarning avlodlaridan bo'lib, Kidar ismli hukmdor ularga yo'l boshchi edi. Shuning uchun ular kidariylar nomi bilan tilga olinadi. Tez orada kidariylar Amudaryo havzasi hamda g'arbiy va janubiy Sug'd yerlarini ishg'ol etib, xioniylar davlatining janubiy qismida o'z hukmronligini o'rnatganlar. Balx shahri esa bu yangi davlatning poytaxtiga aylantirilgan.

Ilk o'rta asrlarning yirik davlatlaridan biri hisoblangan davlat bu- Eftallar davlatidir. V asrning o'rtalarida O'rta Osiyoga ko'chmanchi eftalit qabilalari kirib kelishadi. Bu yangi qabilalar ittifoqi 50-yillarda ancha mustahkamlandi. Ularning 456-yilda Xitoyga o'z elchilarini yuborishi ham buning tasdig'idir. Eftalitlarning janubga siljishi sosoniylar Eroni bilan to'qnashuvlar keltirib chiqardi. Bu urushda ham eftalitlar g'alaba qozonib, sosoniylar eftalitlarning o'lpondoriga aylanib qoladi. Eftallar sosoniylar bilan birga kurash jarayonida O'rta Osiyoning janubiga siljiy boshlagan. Ular 467-470 yoki 480- yillarda Sug'dni bosib olishadi va keyin Sharqiy Turkistonga qarab siljishadi. 479- yilda Turfon, 490-497- yillarda Urumchi, 497 va 507- yillar oralig'ida Karashara, Xo'tan va Qoshg'ar eftalitlar davlati tarkibiga kiradi va VI asming boshlarida butun Sharqiy Turkiston eftallar qo'l ostida birlashadi.<sup>5</sup>Eftallar davlatiga O'rta Osiyodan tashqari Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkistonning yerlari kirgan<sup>6</sup>. Yana boshqa bir manbada bu davlat hududiga quyidagicha ta'rif berilgan .

Eftalitlarning kelib chiqishi xususida bir qancha olimlar turli fikr bildirganlar. Masalan, S.P.Tolstov, A.N.Bernshtom, K.V.Trever kabi olimlar eftallarning ilk vatani

<sup>4</sup>Ешов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви. Тошкент-2012., Б-132.

<sup>5</sup>Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya .Toshkent-2010 ., B- 96.

<sup>6</sup>Sultonov F., Bozorboev F .O'rta asrlar tarixi.Toshkent., Alisher Nasvoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.2007.B- 4.,

deb Sirdaryoning quyi oqimi deb hisoblasalar, A.Mandelstam, R.Grishman, L.Gumilov, K.Enoki kabi boshqa bir olimlar ularning vatanini Badaxshon deb hisoblaydilar. Litvinskiy va K.Inostransevlar eftalitlarning ilk vatani Farg'onaning tog' oldi hududlari haqidagi fikrni ilgari surganlar.

Eftallar davlati hududlari haqida Xitoy solnomalarida ma'lumotlar uchraydi. Ularga tayangan holda eftalitlar davlatiga O'rta Osiyoning katta qismi, Sharqiy Turkiston, Gandxara va V asming ikkinchi yarmida Shimoliy Hindistonning boshqa bir qancha viloyatlari ham kirganligini bilishimiz mumkin. Bu davlat o'z hududiga ko'ra kushonlar davlatidan ham katta edi<sup>7</sup>.Shu o'rinda eftalitlarning poytaxti to'g'risida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Eftalitlar davrida davlatning poytaxti qayerda bo'lganligi haqida ham aniq ma'lumotlar yo'q. Ba'zilar Boykentni (Poykand) ko'rsatsa, boshqalari Badaxshonda deb biladilar. Shu o'rinda ba'zi bir tarixiy an'analarda yodda tutilsa yomon bo'lmaydi. Masalan, ilgari ko'rib o'rganganimizdek, kushonlar poytaxti bir muddat Sug'diyonada joylashgan va keyinchalik ma'lum sabablarga ko'ra Peshovarga ko'chirilgan. Shunga o'xshash eftalitlar markazi ham avval Baqtriyada, so'ngra sosoniylar xavfi uzil-kesil yo'qqa chiqqach hamda saltanat chegaralari Sharqiy Turkiston hisobiga ham kengaygach, poytaxt Boykentga ko'chirilgan bo'lsa kerak<sup>8</sup>. Har bir davlat o'zining poytaxti orqali madaniyati yoyilishiga sharoit yaratib bergan. Turkiston tarixiy geografiyasida eftalitlar davlati ham muhim bir bosqich bo'lgan.

Turk xoqonligining o'rta asrlar davlatchiligida o'z o'rnini va tarixiy ahamiyati mavjud.Turk xoqonligi to'g'risidagi ma'lumotlar bizgacha saqlanib qolgan, biroq ayrim hollarda ular bir birini inkor etadi. Turk xoqonligi xususidagi manbalar masalan,VI asrda yashagan vizantiyalik tarixchi Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Effesiylarning tarixiy asarlari, bundan tashqari o'rta asrlar tarixchi olimlari at-Tabariy, Denovariy, Beruniy,Narshaxiy asarlarini aytish mumkin<sup>9</sup>.Bu davlat V asrning ikkinchi yarmi va VI asrning birinchi yarimlarida Oltoy

<sup>7</sup> Saidboboyev Z.Tarixiy geografiya .Toshkent-2010 ., B- 96.

<sup>8</sup> Saidboboyev Z.Tarixiy geografiya .Toshkent-2010 ., B- 97.

<sup>9</sup> Ешов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви.Тошкент-2012.,B-140.

va Janubiy Sibirda vujudga kelgan. 551-yilda Bumin yabg‘u unvonini oladi va shu davrdan boshlab turk hoqonligi rasmiy e‘tirof etiladi. Davlat hududlarining kengayishi Buminning vorisi Mug‘an (553-572 yillar) davriga to‘g‘ri keladi. Istilochilik yurishlarining g‘arbiy yo‘nalishiga Mug‘anning ukasi Istemi boshchilik qildi. Albatta turklarning janubga siljishida eftalitlar bilan to‘qnashuvlar kelib chiqishi aniq edi. Turklar va eftalitlar o‘rtasidagi dastlabki to‘qnashuvlar VI asrning 50-yillariga to‘g‘ri keladi. Ular dastlab O‘rta Osiyoning shimoliy qismida to‘qnashgan edilar. bu ikki davlat o‘rtasidagi to‘qnashuv turklarning g‘alaba qilishi bilan yakunlangan. So‘nggi hal qiluvchi jang Buxoro yaqinida yuz bergan. Bu haqidagi ma‘lumot Katta Kultegin bitiktoshida: ‘ular (Mug‘an va Istemi ) Temir-kapig‘acha o‘z xalqini yoyishdi’ degan yozuvlar uchraydi. Temir kapig‘, ya‘ni Temir Darvoza Boysun tog‘idagi Sug‘d va Toxariston oralig‘idagi o‘tish joyi edi. Demak, turklar janubda m ana shu hududlargacha etib kelgan. Turk xoqonligining sharqdan-g‘arbgacha bo‘lgan chegarasi esa Koreyadan Qora dengiz bo‘ylarigacha cho‘zilgan edi. Bu ulkan davlat mustahkam bo‘lmaganligi sabab ikki davlatga bo‘linib ketadi. Bular biri sharqiy xoqonlik bo‘lib uning hududi hozirgi Mo‘g‘iliston hudulariga to‘g‘ri keladi. Ikkinchisi esa G‘arbiy xoqonlik bo‘lib , bu davlat tarkibiga O‘rta Osiyo, Jung‘oriya, va Sharqiy Turkistonning bir qismi kirgan<sup>10</sup>. Turkiston hududi G‘arbiy xoqonlik tarkibida tarkibida bo‘lgan.

Bu vaqtda O‘rta Osiyoda mustaqil hokimliklar ham mavjud edi.V-VII asrlarda yer egaligi munosabatlarining rivoj topib, siyosiy jihatdan zaiflashuvi oqibatida 15 dan ziyod mustaqil davlatlarga bo‘linib ketgan. Masalan , bu davlatlarning eng yiriklari So‘g‘d, Toxariston, Xorazm, Eloq, Choch, Farg‘ona kabilar edi. Ular rasman avval eftallarga,so‘ng Turk xoqonligiga bo‘ysundirilgan bo‘lsa ham amalda mustaqil edi.

So‘g‘d Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan mahalliy hokimlikdir. Bu davlat tarkibiga Samarqand, Buxoro, Kesh, Naqshab mulklari kirgan edi. Bu mulklarning har biri o‘z hokimiga va harbiy chokarlariga ega edi. Ularning ko‘pchiligi

<sup>10</sup> Sultonov F., Bozorboyev F .O‘rta asrlar tarixi.Toshkent.,Alisher Nasvoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.2007.B- 6.

Samarqand ixshidiga siyosiy tobe bo'lsa ham, ammo Buxoro ,Kesh, Naqshab deyarli mustaqil edi. So'g'dda dehqonchilik, bog'dorchilik, ayniqsa uzumchilik rivoj topgandi. Bu yerning hisori qo'ylari va tulporlari juda mashhur edi. Hunarmandchilikning to'qimachilik, kulolchilik, ko'nychilik, chilangarlik, taqachilik, najjorlik, qurolsozlik va zargarlik yuqori darajada rivojlangan edi.

Toxariston Surxondaryo viloyati , Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston hududlarida joylashgan bo'lib, 27 tog' va tog'oldi viloyatlarini birlashtirgan edi. Toxariston hukmroni jabg'u unvoni bilan, unga tobe hokimlar esa (Xuttalon, Qubodiyon, Shug'onon, Chag'oniyon va boshqa mulklar boshliqlari) o'z mahalliy unvonlari bilan atalgan<sup>11</sup>. Ular ichida Xuttalon, Shuman, Qabodiyon, Shug'onon va Vaxon viloyatlari eng kuchli va nufuzli edi. Poytaxti esa Balx shahri bo'lgan. Toxaristonning ilk o'rta asrlarda mavjud bo'lgan mahalliy hokimliklari hali yagona davlatga birlashib markazlashmagan edi. Aholi e'tiqodi bo'yicha budda diniga sig'ingan. Toxariston o'zining 25 harfli yozuviga ega bo'lgan. Toxarlar asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan. Hunarmandchilikda ayniqsa qurolsozlik rivojlangan bo'lib, askarlari kamon, gurzi, cho'qmor, xanjar, va shamshir bilan qurollangan. Toxaristonda shishasozlik va to'qimanchilik ham rivoj topgan.

Farg'ona mahalliy hokimligi Farg'ona vidiysida joylashgan edi. Poytaxti esa Koson va Axsikat shaharlari bo'lgan. Hukmdorlar Farg'onada 'ixshid' deyilgan. Farg'ona davlatida dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik xo'jaliklari va ichki hamda tashqi savdo rivoj topgan mustahkam iqtisodiyoti yaxshi rivojlangan hudud edi. Farg'ona qo'shni mamlakatlar bilan ham savdo o'rnatganligi haqida manbalarda ma'lumotlar mavjud. Masalan qo'shni davlatlarga bo'yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar eksport qilgan. Qurama va Qoramazor tog'li hududlarida azaldan yilqichilik bilan shug'ullanilgan. Farg'ona otlarining nomi dunyoga dong'i ketgan edi. Farg'ona ham xuddi toxarlar kabi budda diniga e'tiqod qilgan.

<sup>11</sup> Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya .Toshkent-2010 ., B- 100.

Choch va Iloq Chirchiq va Ohangaron vodiylarida joylashgan mahalliy hokimliklar edi. Chochning poytaxti Chochkat shahri bo'lsa, Iloqning poytaxti esa Tunkat shahri edi. Chochning hukmdori "tudun", Iloqniki esa "dehqon" deb yuritilgan<sup>12</sup>. Chochdan Ipak yo'lining shimoli-sharqiy tarmog'I o'tganligi bu hududning strategik ahamiyati balandligini ko'rish mumkin. Choch-Chjeshe (Chiachiat) davlati VI asrga oid "Vey Shu" va VII asrga oid "Bey Shu" solnomalarida tilga olingan. Ularda keltirilishicha Chgoch Xitoyga elchilar yuborganligi va Suy sulolasi bilan diplomatik aloqa o'rnatganligini yozilgan<sup>13</sup>. Choch va Iloqda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, konchilik, ichki va tashqi savdo rivoj topgan. Vohada 255ga yaqin manzilgohlar, 30dan ziyod qal'a va shaharlar qad rostlagan edi. Iloq O'rta Sharqda oltin kumushlarni qazib olish bo'yicha mashhur bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, o'rta asrlar mahalliy davlatlarida ham tabiiy boyliklarni qazish bo'yicha O'rta Sharq o'z o'rniga ega bo'lgan. Chochda chaqa-tangalar zarb etilgan bo'lib, tangalarning old tomoniga mulkdorlarning surati, orqasiga gajak dumli bars yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tasvirlari tushirilgan. Hattoki ayrim tangalarda malika tasvirini ham ko'rishimiz mumkin. bu Chochda malikalarning nufuzi balandligidan dalolat beradi. Choch va Iloqda rasmiy til sifatida so'g'd tilidan foydalanilgan. Ilk o'rta asrlarda so'g'd tilining asosiy til ekanligini ko'rish mumkin. VIII asrlarga kelib Choch va Iloq yagoan davlatga birlashadi.

Mahalliy mustaqil hokimliklar haqidagi ma'lumotlarni Xitoy tarixchilari asarlarida ham uchratish mumkin. Masalan Xitoy mualliflariga ko'ra, Sug'diyonada mahalliy Kan sulolasining mavqei kuchli bo'lib, ularga sakkiz hokimlik (mulk) tobe bo'lgan. Sug'diyona hukmdori ixshid unvoniga, tobe hokimliklar boshliqlari ham o'z unvonlariga ega bo'lganlar (masalan, Kesh hokimi ixrid unvoni bilan mashhur bo'lgan). Boshqaruvni uch amaldor (vazir) amalga oshirgan. Toxaristondagi ahvol ham

<sup>12</sup> Sultonov F., Bozorboyev F. O'rta asrlar tarixi. Toshkent., Alisher Nasvoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2007. B- 6.

<sup>13</sup> Ходжаев А. Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Шаш (Ташкент) // О'zbekiston tarixi. – 2005. – С. 3–18.

xuddi shu kabi bo'lgan. Toxariston hukmroni jabg'u unvoni bilan, unga tobe hokimlar esa (Xuttalon, Qubodiyon, Shug'onon, Chag'oniyon va boshqa mulklar boshliqlari) o'z mahalliy unvonlari bilan tanilganlar. Masalan, Chag'oniyonni chag'onxudotlar boshqarganlar. Shoshdagi ahvol ham 605- yilga qadar xuddi shunday kechgan bo'lsa-da, ammo shu yili Sheguyxon (vafoti 618 yil) bu yerni boshqarishni shahzodalardan Fuchjiteginga topshiradi. Xorazmga kelsak, bu yerni, ilgari tilga olinganidek, mahalliy afrig'iylar sulolasi namoyandalari boshqarganlar<sup>14</sup>. Bu vaqtda asosiy davlat Turk xoqonligi bo'lgan bu mahalliy davlatlar rasman ularga qaram edi, biroq amalda deyarli mustaqil boshqargan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'rta Osiyo ilk o'rta asrlarda siyosiy tarixiy geografik jihatdan bir qancha davlatlar hukmronlik qilganini ko'rib o'tdik. Xioniyalar va kidariylarning boshqaruvi, madaniyati xususida tarixda ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. Biroq ularning tarixiy geografik hududi haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. Eftallar va Turk xoqonligi haqida tarixda bir muncha malumotlar ko'proq uchraydi. Bu davlatlarning o'rta asrlar uchun buyuk bo'lgan Xitoy bilan ham aloqasi borligi O'rta osiyo davlatlarning ilk o'rta asrlarda ham tarixiy ahamiyati yuqori ekanligi ko'rish mumkin. Ularning boshqaruvi, hukmdorlari, madaniy hayoti, egallagan hududlari xususidagi ma'lumotlar orqali biz O'rta Osiyoning ilk o'rta asr davlatlari qay darajada ekanligini bilishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Zokirjon Saidboboyev. Tarixiy geografiya .T-2010
2. Ходжаев А. Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Шаш (Ташкент) // О'zbekiston tarixi. – 2005.
3. Sulstonov F., Bozorboyev F .O'rta asrlar tarixi. Toshkent., Alisher Nasvoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2007.
4. Ешов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви. Тошкент-2012.

---

<sup>14</sup> Zokirjon Saidboboyev. Tarixiy geografiya .T-2010 ., B- 100  
WWW.HUMOSCIENCE.COM



5. Umarov, B. B. O. (2022). SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE DURING THE RULE OF THE SOMANIANS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.

6. UMAROV, B. (2022). ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 94-100.

7. [uz.m.wikipedia.org](http://uz.m.wikipedia.org)